

**“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi
Komplayens – xizmati tomonidan amalga oshirilgan ishlar
HISOBOTI
(2023 – yil yakuni bo‘yicha)**

Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplayens - xizmati faoliyati “O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Komplayens – xizmati) hozirgi formatida va tarkibida Kuzatuv kengashining 2022-yil 14-dekabrda bayonnomasi qarori asosida tashkil etilgan. 2023-yil hisobot davrida Komplayens - xizmati faoliyati Komplayens - xizmati yillik ish rejasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va qo‘mitalarining Xizmatning funksional yo‘nalishlari bo‘yicha topshiriqlarini bajarishga qaratildi.

“O‘zmetkombinat” AJ (keyingi o‘rinlarda – *Jamiyat*) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan shtatlar jadvaliga asosan Komplayens – xizmatiga **5 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan **4 ta** shtat birligi xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda **1 ta** vakant lavozimiga xodimlarni ishga olish boyicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

I. Hisobot davrida Komplayens - xizmati Kuzatuv kengashining 2022 – yil 14-dekabrda tegishli bayonnoma qarori bilan tasdiqlagan Komplayens - xizmati 2023-yil uchun ish rejasining quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha belgilab berilgan vazifalarning bajarilishini ta‘minladi:

1) *Tartibga soluvchi hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, uslubiyot va boshqalar) ishlab chiqish* - hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan Komplayens - xizmati to‘g‘risidagi Nizom (yangi tahrirda), Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosati, Sanksiyalar bo‘yicha komplayens Siyosat, Monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati, “O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti, “O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaviy xavf – xatarlarni baholash Uslubiyoti kabi hujjatlar belgilangan tartibda ishlab chiqildi va Kuzatuv kengashi yig‘ilishlarida tasdiqlandi.

2) *Xavflarni boshqarish sohasida (risk - management)* - 2023 – yil hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiy, ma‘muriy, kadrlar va tarkibiy va hududiy bo‘linmalardan olingan ma‘lumotlarni to‘plash va qayta ishlash asosida “O‘zmetkombinat” AJ faoliyatidagi xavflarni aniqlash bilan bog‘liq ishlar amalga oshirildi. Ushbu ma‘lumotlar tahlili asosida “O‘zmetkombinat” AJ ishlab chiqarish - xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq asosiy xavflarning “qisqa” va “kengaytirilgan” ro‘yxati uchun kartochkalar (profilar) tayyorlandi.

Bu, o‘z navbatida, o‘zida strategik, operatsion, moliyaviy xavflar va qonun hujjatlariga rioya etish sohasidagi xavflar (komplayens xavflar) kabi guruhlar bo‘yicha **229 ta** xavf – xatarlar tavsifi keltirilgan “O‘zmetkombinat” AJ ning ishlab chiqarish,

moliya – xo‘jalik va boshqa faoliyati xavflar xaritasini ishlab chiqish va joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan (korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash) Uslubiyot hamda Jamiyatning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga asosan Jamiyat markaziy apparatining **25 ta** tashkiliy birlik va bo‘linmalarning **142 ta** funksiyalari baholandi.

Jamiyatda xavf-xatarlarni oldini olish yuzasidan 2023-yil 17-iyul‘da **136 banddan** iborat Dastur (Yo‘l xaritasi) tasdiqlandi.

Komplayens - xizmati tashabbusi bilan har bir tarkibiy bo‘linma va ishlab chiqarish bo‘linmalaridan xavflar bo‘yicha **36 nafar** xavf - koordinatorlari tayinlandi. Maxsus o‘quv seminarlarida asosiy e‘tibor tayinlangan koordinatorlarning ishlab chiqarish, moliyaviy, xo‘jalik va “O‘zmetkombinat” AJ faoliyatidagi barcha xavflarni aniqlash va ularni qisqartirish hamda bartaraf etish bo‘yicha tegishli mos tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha malakalarini oshirishga qaratildi.

3) Xaridlar jarayoni bo‘yicha komplayens sohasida - hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan Kombinatning xarid jarayonlarini tashkil etish samaradorligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida “O‘zmetkombinat” AJning **1465 ta** amaldagi va potentsial kontragentlarining ishonchligi va xalqaro, G‘arbiy va Yevropa Ittifoqi davlatlari sanksiyalariga muvofiqligi tekshirildi va ushbu tekshiruvlar yuzasidan **176 ta** xulosalar berildi. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish doirasida, belgilangan talablarga muvofiq kontragentlarning davlat byudjeti oldidagi qarzlari (*solliqlar, MIB oldidagi qarzlari*) mavjudligi, uning faoliyati (*ishlayotgan korxonalar yoki faoliyati to‘xtatilganligi*), manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi, uning offshor zonalarida ishlashi, bankrotlik xavflari va boshqa xavflarga nisbatan tekshiriladi.

“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 12-sentyabrdagi qarori (*12-sonli bayonnoma*) bilan tasdiqlangan “Komplayens - xizmati to‘g‘risida”gi yangilangan Nizomga muvofiq Komplayens - xizmatiga **xaridlar jarayoni narx siyosatining asoslilikini tekshirish** majburiyati yuklandi. 2023 yil 1 - oktyabridan 31 – dekabrgacha bo‘lgan hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan tovarlar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish narxlarini ekspertizadan o‘tkazish doirasida **143 ta** talabnoma ko‘rib chiqilishi natijasida narxlarning **7 926 328 026, 00 so‘mga** oshganligi aniqlanib, ushbu holatlar yuzasidan **ishlab chiqarishni ta‘minlash departamenti** tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan xarid qilish tartib - taomillarining narx parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi.

4) Xodimlarni boshqarish jarayonlarining komplayensi sohasida - hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga muvofiq, Xodimlarni boshqarish departamenti kombinatning barcha tarkibiy va hududiy bo‘linmalari ishchi - xodimlari tomonidan har yili manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni (*shu jumladan, boshqa lavozimga o‘tkazilganda va rotatsiya qilinganda*) to‘ldirilishini nazorat qilib bordi. Komplayens - xizmati tashabbusi va tavsiyasi bilan Xodimlarni boshqarish departamenti tomonidan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritildi.

5) Monopoliyaga qarshi komplayens sohasida - hisobot davrida Komplayens-xizmati tomonidan “O‘zmetkombinat” AJ ning monopoliyaga qarshi Siyosati ishlab chiqilgan va Kuzatuv Kengashining tegishli bayonnoma qarori bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining tavsiyasiga ko‘ra, 2023-yil 24-mayda Jamiyatda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari talablarini buzish xavfini kamaytirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi.

6) Komplayens tekshiruvlar - hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan uchta keng qamrovli majmuy komplayens tekshiruvlari o‘tkazildi:

– “Metallurg” PFK MChJ sho‘ba tashkiloti (“O‘zmetkombinat” AJning 100 foiz ulushi) faoliyati komplayens tekshiruvdan o‘tkazilib, xaridlar jarayoni, ish vaqtini hisobga olish, shartnomaviy faoliyat, shu jumladan kadrlar hisobini yuritish, ovqatlanish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha aniqlangan barcha kamchiliklar yuzasidan bartaraf etish uchun tavsiyalar berildi.

Komplayens - xizmati tomonidan taqdim etilgan tavsiyalar asosida “PFK Metallurg” MCHJ faoliyatida majmuy komplayens tekshiruvi davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan aniq amaliy chora-tadbirlar asosida Yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

– “O‘zmetkombinat” AJ “Oziq-ovqat kombinati” tarkibiy bo‘linmasi omborlardagi oziq-ovqat mahsulotlari, meva-sabzavot va boshqa tovar-moddiy boyliklarning kirim va chiqimlarini buxgalteriya hisobi bo‘yicha tashkil etish, kombinat oshxonalarida ovqatlanishni O‘zbekiston Respublikasi SanQvaM talablariga muvofiq, shu jumladan, shikoyatlar kitobi, sanitariya-gigiyena me‘yorlari va tartiblarini qayd qiluvchi hujjatlar mavjudligi majmuy komplayens tekshiruvdan o‘tkazildi. Komplayens tekshiruvi natijalariga ko‘ra qo‘pol kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan xodimlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun materiallar Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamentiga yuborildi.

Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari – ijrochi direktorining topshirig‘iga ko‘ra, ikkilamchi qora metallarni (metall parchalarini) import qilish yo‘li bilan sotib olish uchun tender savdolari lotini bekor qilinishi sabablari komplaens – tekshiruvdan o‘tkazildi. Ushbu komplayens tekshiruv davomida kombinatning ishlab chiqarish direksiyasi (muhandislik markazi) va ishlab chiqarishni ta‘minlash departamenti (tender bo‘limi) ish jarayonlarida bir qator kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish va kelgusida yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi.

7) Kombinat xodimlari va fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash, “ishonchli aloqa kanallari” faoliyatining tashkil etilganligi - hisobot davrida Komplayens – xizmati tomonidan Kombinat tarkibiy va hududiy bo‘linmalari ishchi - xodimlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari haqida xabar berishlarini yengillashtirish maqsadida Telegram ijtimoiy tarmog‘ida **UMK_Anticorbot** ishga tushirildi va ushbu ilovadan foydalanish bo‘yicha videorolik tayyorlanib, rasmiy veb – sayt va ijtimoiy tarmoqlarda kuzatuvchilar hukmiga havola etilmoqda.

Telegram ijtimoiy tarmog'idagi UMK_Anticorbot **6 bo'limdan** iborat:

- poraxo'rlik va korrupsiya;
- buxgalteriya hisobining buzilishi;
- mehnat va mehnat sharoitlarining teng bo'lmaganligi;
- salomatlik, xavfsizlik va atrof-muhitga tahdid;
- axborotning chiqib ketishi (tarqatilishi) / yo'q qilinishi;
- boshqa qoidabuzarliklar.

2023 – yil hisobot davrida korrupsiya holatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali **14 ta murojaat** kelib tushgan bo'lib, barcha murojaatlar tegishli tarkibiy bo'linmalarni jalb qilgan holda ko'rib chiqilib, murojaat qilganlarga yozma va og'zaki ravishda javoblar berildi.

8) kombinat xodimlari uchun o'quv seminarlari - Hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan “O'zmetkombinat” AJ tarkibiy va hududiy bo'linmalari rahbarlari va yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xorijlik ekspert ishtirokida xavflarni boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha **7 ta** umumiy va maxsus o'quv seminarlari tashkil etildi va o'tkazildi.

Maxsus o'quv seminarlarida asosiy e'tibor tarkibiy bo'linmalardan tayinlangan xavf - koordinatorlarni ishlab chiqarish, moliyaviy, xo'jalik va “O'zmetkombinat” AJ faoliyatidagi barcha xavflarni aniqlash va ularni qisqartirish hamda bartaraf etish bo'yicha tegishli mos tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha malakalarini oshirishga qaratildi.

Hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan (**2 nashrda**) “O'zmetkombinat” AJ ning korrupsiyaga qarshi komplayens tizimiga oid ma'lumotlar qo'llanmasi” va “Korrupsiyaga oid ma'lumotlar qo'llanmasi” hamda “Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi hamda boshqa qoidabuzarliklarni oldini olish yo'nalishida tarkibiy va hududiy bo'linmalarning majburiyatlari” maxsus o'quv kursi dasturlari va “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil etish va korrupsiyani oldini olish asoslari” malaka oshirish o'quv kurs dasturlari ishlab chiqildi.

9) Komplayens - xizmati xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish - hisobot davrida xizmat xodimlari O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Toshkent Xalqaro Arbitraj Markazi, Allen&Overy Amerika yuridik kompaniyasi, CERT International kompaniyasi, Toshkent davlat yuridik universiteti va boshqalar tomonidan tashkil etilgan davlat organlari va tashkilotlarida komplayens - nazorat qilish va korrupsiyaning oldini olish tizimini samarali joriy etish, sanksiyalar bo'yicha komplayens, ISO 37001 korrupsiyaga qarshi standartini qo'llashda forenzik roli kabi mavzular bo'yicha malaka oshirish kurslari va ilmiy-amaliy seminarlarda ishtirok etdilar.

II. 2023 - yilgi Komplayens - xizmati ish rejasida belgilangan vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, hisobot davridagi xizmat faoliyatida Vazirlar Mahkamasi, Tog - Kon Sanoati va Geologiya vazirligi, Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi, Davlat Aktivlarini Boshqarish Agentligi va boshqa Qo'mitalarning topshiriqlarini bajarishga ham qaratildi. 2023 – yil hisobot davrida Komplayens - xizmatiga **217 ta xizmat xatlari kelib tushdi, ular bo'yicha topshiriqlarning to'liq bajarilishi ta'minlandi.**

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi topshirig‘iga asosan 2023-yil 11-aprelda Jamiyat faoliyatining turli sohalaridagi **barcha ma’lumotlar va malumotlarning shaffofligi va ochiqligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini** takomillashtirishga qaratilgan **9 banddan** iborat chora - tadbirlar dasturi tasdiqlandi, ushbu chora – tadbirlar doirasida aniq amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Jamiyatning www.uzbeksteel.uz rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma’lumotlar” bo‘limlari joriy etildi. Mazkur bo‘limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e’lon qilinishi belgilangan ma’lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (ishonch telefoni va elektron pochta) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens – xizmatining mas’ul xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma’lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi. Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini hal etish borasidagi ishlar to‘g‘risida har chorakda doimiy yangilanib borilayotgan va qo‘shimcha hisobot shaklidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi tomonidan ishga tushirilgan yagona identifikatsiya tizimi (OneID) orqali “E-anticor.uz” elektron platformasiga kiritildi.

Xodimlar o‘rtasida **keng miqyosda targ‘ibot va tashviqot ishlarini** olib borish va ishchi – xodimlar huquqiy ongini oshirish **maqsadida Kombinat “Korrupsiyaga qarshi kurash Siyosati” va “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosat”lari asosida amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar yo‘nalishida Komplayens - xizmati tomonidan** tegishli mavzularda **9 ta audiorolik va 3 ta videoroliklar** tayyorlanib, Kombinat rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida joylashtirildi. Ushbu yo‘nalishlar doirasida **9 ta yozma targ‘ibot** materiallari ishlab chiqilib, ular Kombinat rasmiy veb - sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida xodimlar, hamkorlar, kontragentlar va barcha kuzatuvchilar e’tiboriga havola etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ishchi - xodimlarning bilim darajasini o‘rganish maqsadida Kombinatning rasmiy telegram kanalida **2 marotaba** ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi. “Metallurg minbari” va “Pravda Vostoka” gazetalarida oylik nashrlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishning turli jihatlari bo‘yicha Kombinat rahbariyati va top - menejmentining **11 ta** maqolasi chop etildi. Bunday muhim tashviqot va targ‘ibot materiallari qatoriga Jamiyat Boshqaruv raisi - bosh direktorining ishchi – xodimlar va jamoatchilik uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaatini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2023 – yil 23 – avgustdagi 10 – sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligini o‘tkazish bo‘yicha chora – tadbirlar rejasi hamda Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligining 2023 – yil 24 – oktyabridagi 02 – 07 / 5125 – son xati asosida joriy yilning 30 – noyabr kuni Komplayens – xizmati tomonidan **“Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”** mavzusida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil etildi. Tadbirda “O‘zmetkombinat” AJ hamda prokuratura, ichki ishlar organlari, sud hokimiyati, Adliya vazirligi hududiy bo‘linmalarining mas’ul vakillari korrupsiyaga qarshi mavzularda ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Tadbir mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida, xususan “UzReport TV” teleradiokanali, “Nuravshon TV”, “Pravda Vostoka” gazetasi va Kombinat rasmiy nashri “Metallurg minbari” gazetasi va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida keng yoritildi.

“O‘zmetkombiant” AJ
Kuzatuv kengashi huzuridagi
Komplayens – xizmati boshlig‘i

Badalbayev A.A.